

## **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 18 martdagi «Dehqon xo'jaliklari va tomorqa er uchastkalaridan samarali foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 205-sonli qarori haqida**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 18 martdagi «Dehqon xo'jaliklari va tomorqa er uchastkalaridan samarali foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 205-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 18 martdagi «Dehqon xo'jaliklari va tomorqa er uchastkalaridan samarali foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 205-sonli qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yuqorida ko'rsatilgan qarori bilan:

a) Quyidagilar:

- Dehqon xo'jaliklari va tomorqa er uchastkalaridan samarali foydalanishni tashkil etish va monitoringini yuritish tartibi to'g'risida nizom 1-ilovaga muvofiq;

- Dehqon xo'jaliklari va tomorqa er uchastkalariga qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish, ekish va parvarishlash, shuningdek, zarur moddiy resurslar etkazib berilishini muvofiqlashtiruvchi respublika ishchi guruhi (keyingi o'rinlarda Respublika ishchi guruhi deb ataladi) tarkibi 2-ilovaga muvofiq;

- Dehqon xo'jaliklari va tomorqa er uchastkalariga qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish, ekish va parvarishlash, shuningdek, zarur moddiy resurslar etkazib berilishini muvofiqlashtiruvchi respublika ishchi guruhi a'zolariga birlashtirilgan hududlar ro'yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

b) Respublika ishchi guruhiga (Mirzaev, Narbaeva) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va viloyatlar hokimlari bilan birgalikda:

mazkur qaror bilan tasdiqlangan Dehqon xo'jaliklari va tomorqa er uchastkalaridan samarali foydalanishni tashkil etish va monitoringini yuritish tartibi to'g'risidagi nizom talablarining to'laqonli bajarilishi yuzasidan tizimli nazorat o'rnatish;

dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalari tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirishda zarur bo'lgan yonilg'i-moylash mahsulotlari, mineral o'g'itlar, o'simliklarni himoya qilish vositalari, sifatli urug'lik va ko'chatlarni hamda chorva mollari va parrandalar uchun ozuqalarni joylarda (mahallada) sotish ishlarini tashkil etish;

tomorqa er uchastkalariga qishloq xo'jaligi ekinlarini optimal muddatlarda ekish, parvarishlash, zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlarga qarshi kurashish hamda boqiladigan chorva mollari va parrandalarni emlash tadbirlarini amalga oshirishda sohaga oid ilmiy-tekshirish institutlari, olimlar va tajribali aqronomlarning amaliy yordamlarini tashkil etish;

dehqon xo'jaliklari va tomorqa er uchastkalarida etishtirilgan hosil yoki mahsulotlarni sotib olishning kafolatlangan mexanizmini yo'lga qo'yish maqsadida tayyorlov, qayta ishlash va eksport qiluvchi tashkilotlarni aniq hududlarga birlashtirish;

dehqon xo'jaliklari va tomorqa er uchastkalaridan samarali foydalanish bo'yicha belgilangan chora-tadbirlarning bajarilishini monitoring va tahlil qilib borish, umumlashtirish va har oy yakunida keyingi oyning 5-sanasigacha kamchiliklarni bartaraf etish va tizimni takomillashtirishga doir Vazirlar Mahkamasiga ma'lumotlar va takliflarni kiritish topshirilganligi;

v) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi hamda viloyatlar hokimliklari, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalari kengashi qishloq va ovullarga sifatli urug' va ko'chatlar etkazib berish ishlarini amalga oshirish, buning uchun doimiy hamda mavsumiy harakatlanuvchi savdo do'konlarini tashkil qilishga shaxsan mas'ul ekanligi belgilab qo'yilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

-Dehqon xo'jaliklari va tomorqa er uchastkalariga qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish, ekish va parvarishlash, shuningdek, zarur moddiy resurslar etkazib berilishini muvofiqlashtiruvchi Qoraqalpog'iston Respublikasi ishchi guruhi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

-Dehqon xo'jaliklari va tomorqa er uchastkalariga qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish, ekish va parvarishlash, shuningdek, zarur moddiy resurslar etkazib berilishini muvofiqlashtiruvchi ishchi guruhi a'zolariga birlashtirilgan tumanlar ro'yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. «Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi» AJ dehqon xo'jaliklari va tomorqa er uchastkalarida qishloq xo'jaligi ekinlarini etishtirish uchun zarur bo'lgan mineral o'g'it va o'simliklarni himoya qilish vositalarini joylarga etkazib berish orqali dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalari pullik xizmatlar ko'rsatilishini tashkil etsin.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi O'rmon xo'jaligi qo'mitasi, Akademik M.Mirzaev nomidagi bog' dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutining Qoraqalpog'iston bo'limi bilan hamkorlikda dehqon xo'jaliklari va tomorqa er uchastkalarida ekishga mo'ljallangan mevali va manzarali ko'chatlarni qishloq va ovullarda sotish choralari ko'rsin.

6. Qoraqalpog'iston teleradiokompaniyasi, Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston «Mahalla» hayriya jamoat fondi Qoraqalpog'iston bo'limi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Qoraqalpog'iston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalari kengashi bilan hamkorlikda ommaviy axborot vositalari orqali dehqon xo'jaliklari va tomorqa er uchastkalaridan samarali foydalanishning ilg'or tajribalari va iqtisodiy foydasi to'g'risida maxsus ko'rsatuv va eshittirishlarni muntazam ravishda tashkil etish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish o`zimda qoldiraman.

**Qoraqalpog`iston Respublikasi**  
**Vazirlar Kengashining Raisi**

*Ko'rib chiqildi:*

**Q.Sariev**

 

- 
- 
- 

[Vazirlar Kengashi](#) [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)  
[Vazirliklar va idoralar](#) [Shahar va tuman hokimliklari](#)  
[Hujjatlar](#) [Respublika mehmonlariga](#) [Elektron hukumat](#) [Interaktiv davlat xizmatlar](#)